

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BRENDA KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinoz Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Bahodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxongir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI.....	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHIIYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

ONTOLOGICAL INTERPRETATION OF THE ESSENCE OF COSMOGENIC, TECHNOGENIC, AND ANTHROPOGENIC CIVILIZATIONS

Ochilov Jamshid Abdurashidovich

Associate Professor (PhD), Institute for Advanced Training and Retraining in the Religious and Educational Sphere,

Independent Researcher at Samarkand State Pedagogical Institute

E-mail: j.ochilov@gmail.com

Abstract. This article analyzes the ontological essence of cosmogenic, technogenic, and anthropogenic civilizations. The cosmogenic approach emphasizes the harmony between humans and nature as well as ecological sustainability; the technogenic approach focuses on development through scientific and technological potential; while the anthropogenic approach prioritizes the spiritual and social potential of human beings. The article highlights that the integration of these three approaches is of great importance for a deeper understanding of modern civilization and for assessing the prospects of sustainable development.

Keywords: cosmogenic civilization, technogenic civilization, anthropogenic civilization, existential dimension, rhythm, ontology, globalization of technogenic civilization, determining factors, human factor, spiritual and moral values, technological determinism, technological culture, anthropo-technogenic culture, technogenic thinking.

KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI

Ochilov Jamshid Abdurashidovich

Diniy-ma'rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti (PhD) dotsenti,
Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kosmogen, texnogen va antropogen sivilizatsiyalarning ontologik mohiyati tahlil qilingan. Kosmogen yondashuv insonning tabiat bilan uyg'unligini va ekologik barqarorlikni, texnogen yondashuv ilmiy va texnik salohiyat orqali rivojlanishni, antropogen yondashuv esa insonning ma'naviy va ijtimoiy salohiyatini ustuvor qiladi. Uch yondashuvning integratsiyasi zamonaviy sivilizatsiyani chuqurroq tushunish va barqaror rivojlanish istiqbollari baholashda muhim ahamiyatga ega ekanligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kosmogen sivilizatsiya, texnogen sivilizatsiya, antropogen sivilizatsiya, ekzistensial, ritm, ontologiya, texnogen sivilizatsiya globallasuvi, determinlashtiruvchi omillar, inson omili, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, texnologik determinizm, texnologik madaniyat, antropotexnogen madaniyat, texnogen tafakkur.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N16>

Kirish. Sivilizatsiya tushunchasi insoniyat taraqqiyotining eng murakkab va ko'p qirrali sohalaridan birini tashkil etadi. Uning mohiyatini anglash uchun faqat tarixiy yoki madaniy jarayonlarni emas, balki inson, texnologiya va olam o'rtasidagi fundamental munosabatlarni ham ontologik nuqtai nazardan tahlil qilish talab etiladi. Shu bois sivilizatsiyalar rivojlanishini turlicha mezonlar asosida tasniflash zamonaviy falsafa va fanning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kosmogen, texnogen va antropogen sivilizatsiyalar haqidagi yondashuvlar inson mavjudligi va uning olamdagi o'rnini turlicha talqin etadi. Kosmogen sivilizatsiya olamning kosmik qonunlari, tabiatning universal ritmlari va energiya manbalari bilan bog'liq holda shakllangan tizim sifatida qaraladi. Texnogen sivilizatsiya esa insoniyat tomonidan yaratilgan texnologiyalar, texnika va innovatsiyalar ustuvorligiga asoslangan ijtimoiy-tarixiy modelni anglatadi. Antropogen sivilizatsiyada esa insonning o'zi, uning ma'naviy, ma'rifiy va ijtimoiy qadriyatlari markaziy o'rinda bo'ladi.

Ushbu uch yondashuvning ontologik tahlili sivilizatsiyaning haqiqiy mohiyati nimada ekanini, uning rivojlanish manbalari, ichki qonuniyatlari va kelajakdagi istiqbollari chuqurroq anglash imkonini beradi. Bugungi kunda global sivilizatsion inqirozlar, texnotron o'zgarishlar, ekologik muammolar sharoitida ushbu mavzularni qayta ko'rib chiqish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda ilmiy va tahliliy metodlar qo'llanildi. Asosiy manbalar sifatida Baxtiyor Omanovich Turaevning fundamental asarlari ya'ni Fazo-vaqt sinergetikasi, Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo'lishi, Sinergetika-2: nazariya va amaliyot, Sinergetika-3: ma'naviy meros tanlab olindi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilarning kosmogen, texnogen va antropogen sivilizatsiyalar haqidagi ilmiy maqolalari tahlil uchun foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asoslarini obyektivlik, xolislik, ilmiy, tarixiy, sinergetik yondashuv, qiyosiy tahlil tashkil etadi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan ontologiya, gnoseologiya va mantiq masalalari bilan tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, kosmogen, texnogen va antropogen sivilizatsiyalar mohiyatining ontologik tahlil qilishda foydalanish mumkin.

Tahlil va natijalar. Kosmogen, texnogen, antropogen sivilizatsiyalar mohiyatining ontologik talqini haqida umumiy ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Kosmogen sivilizatsiyaning insoniyatga ta'sirini ko'rib chiqamiz: Insoniyat yaratilishidan to hozirga qadar kosmosga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Bu qiziqish nafaqat uning bilim doirasini kengaytirishga, balki olamning chegaralari, uning imkoniyatlari va sirlarini ilmiy asosda anglashga ham chorlaydi. Shu orqali inson nafaqat texnik va nazariy usullar bilan, balki falsafiy tahlil va tafakkur orqali ham olam haqidagi tushunchasini chuqurlashtirib, o'z o'rnini va hayotdagi ma'nosini izlashga intiladi. Kosmosni o'rganish jarayoni shundan tashqari insonning o'z bilimini kengaytirish, ma'naviy va aqliy rivojlanishini ta'minlash hamda hayotning universal qonunlari va mavjudlik sirlariga oid fundamental savollarga javob topish yo'liga aylanmoqda.

Bizning fikrimizcha, Kosmogen sivilizatsiya — insoniyat taraqqiyotida kosmik omillar, fazoviy muhit va unga oid ilmiy-texnologik yutuqlar asosida shakllanadigan, jamiyatning hayot faoliyatini kosmos bilan uzviy bog'liq holda yo'naltiruvchi rivojlanish bosqichidir. Jamiyat taraqqiyotida kosmik muhit, kosmik resurslar, fazoviy texnologiyalar va insoniyatning kosmosga chiqish qobiliyati hal qiluvchi o'rin tutadigan sivilizatsion bosqich yoki modeldir. Unda jamiyatning iqtisodiy, madaniy, texnologik va ijtimoiy rivojlanishi kosmosdan faol foydalanish va kosmik omillar ta'siri bilan belgilanadi. Insonning faoliyati nafaqat Yerdagi hayot sharoitiga, balki galaktika va keng kosmik muhitga ham bog'liq bo'lib, ilm va texnologiya orqali bu bog'liqlikni chuqurlashtirishga intiladi. U insonni olamning kengligiga moslashishga, uning sirlarini anglashga va uning chegaralarini qadrlashga chorlaydi. Shu tariqa, kosmogen

taraqqiyot bosqichi insoniyat uchun nafaqat fan va texnologiyada yangi bosqich, balki ma'naviy, falsafiy va ekzistensial rivojlanish uchun ham fundamental imkoniyat yaratadi.

Kosmogen sivilizatsiya insonning rivojlanishi va jamiyat hayotini kosmos bilan uzviy bog'laydigan yangi bosqichni ifodalaydi. Bu bosqich astrofizik va kosmologik, texnologik, falsafiy va futurologik asoslarga tayanib qarasaq: Astrofizik va kosmologik asos. Kosmogen sivilizatsiya tushunchasi insoniyatning rivojlanishi va jamiyat hayotini olamning fizik qonunlari, koinot strukturasi va Yerdan tashqari muhit imkoniyatlari bilan uzviy bog'liq tarzda ko'radi. Bu yondashuvda Quyosh energiyasi, asteroid resurslari, kosmik radiatsiya va gravitatsiya qonunlari nafaqat texnik omillar, balki jamiyat taraqqiyotining asosiy dvigatellari sifatida qaraladi. Shu tariqa inson nafaqat o'z ehtiyojlarini qondirish, balki olamning sirlarini anglash va undan aqlli foydalanish orqali hayotiy va ma'naviy rivojlanish yo'liga qadam qo'yadi.

Texnologik asos. Kosmogen sivilizatsiyaning rivojlanishi insoniyatning ilg'or texnologiyalari bilan uzviy bog'liq. Bu texnologiyalar nafaqat kosmosdagi faoliyatni ta'minlaydi, balki jamiyatning rivojlanishi va uzoq muddatli omon qolishini ham sharoitlaydi. Ular qatoriga raketatexnika va kosmik transport tizimlari, Oy va Marsni o'zlashtirish texnologiyalari, sun'iy intellekt va robotlashtirilgan kosmik komplekslar, orbital stantsiyalarda quyosh va boshqa kosmik energiya manbalarini qo'llash, shuningdek asteroidlarni qazib olish va ulardan resurs olish usullari kiradi. Bu texnologiyalar orqali inson nafaqat moddiy imkoniyatlarini kengaytiradi, balki kosmos bilan bog'liq muammolarni hal qilish va olamning sirlarini anglash yo'lida yangi imkoniyatlar ochadi.

Falsafiy va futurologik asos. Kosmogen sivilizatsiya insoniyatning o'z planetasidan tashqarida mavjud bo'lish strategiyasi va uzoq muddatli davomiyligini ta'minlash, shuningdek insonning kosmosdagi o'rni va roli haqidagi tushunchasini chuqurlashtirish bilan bog'liq falsafiy kontseptsiya sifatida qaraladi. Bu yondashuv Karl Sagan, Nikolay Kardashyov, Vernadskiy va Siolkovskiy kabi buyuk olimlar g'oyalari bilan uyg'unlashib, insonning kelajakdagi faoliyatini global va ekzistensial nuqtai nazardan tushunishga imkoniyat yaratadi. Kosmogen sivilizatsiya ko'pincha Kardashyov shkalasi bo'yicha: Birinchi tur – Yer resurslaridan to'la foydalanuvchi sivilizatsiya. Ikkinchi tur – Quyosh energiyasini (Dayson sferasi) to'la o'zlashtiruvchi sivilizatsiya. Uchinchi tur – butun galaktika energiyasini boshqaradigan sivilizatsiya taraqqiyot bosqichlari bilan chambarchast bog'liq holda tushuntiriladi. Internetdagi manbalarga qarasaq: “Hozirgi kunda insoniyat o'z rivojlanishining birinchi bosqichining yarmida turibdi. Karl Sagan insoniyat darajasini Kardashev shkalasi bo'yicha birinchi tur sivilizatsiyaning 0,7 qismi deb baholagan va insoniyat ikkinchi bosqichga yeta oladimi-yo'qmi — noma'lum” [1]. Professor B.Turayev aytganidek: “Keyingi davrda vujudga kelgan kosmologik konsepsiyalarda Koinot evolyutsiyasining xilma-xil snariyalari ishlab chiqilmoqda”[2, 438]. Kosmogen sivilizatsiya g'oyasi orqali insoniyat nafaqat texnik va ilmiy yutuqlarga intiladi, balki uning ma'naviy va ma'rifatli rivojlanishi, olamdagi o'rni va mavjudlikning chuqur ma'nosini anglashi ham ta'minlanadi.

Koinotni ilmiy tadqiq etish jarayonida buyuk vatandoshlarimiz Ahmad Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy va Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi alohida o'rin tutadi. Ularning astronomiya, geodeziya va kosmologiya sohalarida yaratgan asarlari nafaqat o'z davri ilmiy tafakkurining metodologik asosini mustahkamladi, balki insonning koinot haqidagi tasavvurlarini ilmiy dalillarga tayangan holda kengaytirishga xizmat qildi. Ushbu allomalar tomonidan ilgari surilgan nazariy umumlashmalar va kuzatishlar bugungi ilm-fan rivojida ham dolzarbligini

yo‘qotmay, borliqning tuzilishi va undagi qonuniyatlarni anglashning falsafiy-ontologik asoslarini shakllantirishda muhim metodologik manba bo‘lib qolmoqda. “Mirzo Ulug‘bek asos solgan rasadxona oddiy rasadxona emas, balki buyuk farang tarixchisi Volter ta‘riflaganidek, falakiyotshunoslik akademiyasi edi”[3,86]. Kosmogen sivilizatsiya insonga nafaqat fan va texnologiyada yangi bosqichga chiqish imkonini beradi, balki uning ma‘naviy, ma‘rifatli va ekzistensial rivojlanishiga ham zamin yaratadi. Shu orqali inson olamdagi o‘rni, uning mavjudlikning chuqur ma‘nosi va global vazifalarini anglaydi, uni tushunishga intiladi. Kosmogen sivilizatsiya insoniyatning bilim doirasini kengaytirish bilan birga, uni olam va uning qonunlari bilan uyg‘unlashtirish, kelajakdagi hayotiy va ma‘naviy barqarorligini ta‘minlash yo‘lida fundamental ahamiyatga ega. U nafaqat moddiy va texnik rivojlanishni, balki insonning fikriy, ma‘rifiy va falsafiy rivojlanishini ham birlashtirib, uning o‘zini va uning atrofidagi olamni chuqur anglashga yo‘naltiradi. Shu tariqa kosmogen sivilizatsiya insonning kelajakdagi imkoniyatlari va salohiyatini eng yuqori darajaga olib chiqish, uni olamdagi o‘rnini anglab, mavjudlikning asosiy savollariga javob izlash yo‘lida muhim vositaga aylanadi.

Texnogen sivilizatsiya mohiyatini ontologik tahlil qilamiz: Insoniyat tarixining dastlabki davrlarida ham: texnogen sivilizatsiya, texnologik madaniyat, umuman moddiy ishlab chiqarish kuchlari, xususan mehnat vositalarining rivojlanish darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar xarakterini belgilab bergan. Masalan, ibtidoiy texnologik madaniyat kundalik ong darajasida: instinktiv-reflektiv, stixiyali-sodda xarakterga ega bo‘lib, jamiyatning utilitar-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan. Lekin, primitiv ibtidoiy texnologik madaniyat texnogen sivilizatsiyaning “tabiat-jamiyat-inson” munosabatlari tizimiga kuchli ta‘sir ko‘rsatmagan, chunki “areal doirasi”, “ijtimoiy makoni” nisbatan kichik hamda aholisi kamsonli bo‘lgan.

Boshqacha qilib aytganda, insonning madaniy xo‘jalik faoliyati cheklanganligi, texnogen sivilizatsiyaga ta‘sir doirasini ham chegaralagan. Chunki, bir tomondan, texnologik madaniyatning ishlab chiqarish kuchlari (asosan, vositalari) rivojlanish darajalariga mos xususiyatlari jamiyat kundalik tabiiy ehtiyojlaridan, maqsadlaridan kelib chiqqan. Ikkinchi tomondan esa, fan, texnika, texnologiya, intellektual salohiyat rivojlanishining natijasi bo‘lgan “texnologik inson” (borliqqa ta‘siri nuqtai nazaridan), tom ma‘nodagi antropotexnogen madaniyat subyektiga aylanmagan edi.

Kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga dastlabki primitiv “texnikalashgan madaniy ta‘sir” usuli neolit davriga, ya‘ni 5-8 ming yil oldingi davrga to‘g‘ri keladi. Zero, bu davrda inson mehnat faoliyati differentsiallashib, dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi muayyan texnogen sivilizatsiya konturlarini, “arxitekturasini” belgilab bergan. Ya‘ni dastlabki mehnat taqsimoti insonning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati sohalariga, hayoti tarziga mos texnogen sivilizatsiya xususiyatlarini o‘rganadigan (stixiyali va sodda bo‘lsa ham) fan yo‘nalishlarini shakllantirgan.

Sivilizatsiyalar rivojlanishiga adekvat moddiy ishlab chiqarish usuli xarakterining o‘zgarishlari (nisbatan mustaqil ijtimoiy fenomen sifatida), texnologik madaniyat shakllanishiga asos bo‘lgan. Ayniqsa, yirik mehnat taqsimoti vujudga kelishi bilan ishlab chiqarish sohalariga mos texnologik madaniyat yo‘nalishlari va ularni transformatsiyalashtiruvchi usullar, vositalar tizimi rivojlangan.

Jamiyat rivojlanishining keyingi tarixiy davrlarida: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlar diferentsiallashuvi, integratsiyalashuvi va globallasuvi jarayonlari birligi texnogen madaniyat strukturasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatib, uning antropotexnogen faoliyat

yoʻnalishlarini konkretlashtirdi. Hozirgi kunda esa bu jarayonlar yanada kuchayib, jamiyat taraqqiyotining subyektiv omillari tizimida – texnologik inson omilining barcha sohalarida ustuvorlashuvi qonuniyat maqomiga ega boʻlib bormoqda.

Biz sivilizatsiyalar tarixida, umuman madaniyatning, xususan texnologik madaniyatning texnogen sivilizatsiyani determinlashtiruchi asosligini taʼkidlagan holda, uning nisbatan keng tarqalgan va ustuvor hisoblangan taʼrifi, yaʼni: “madaniyat – kishilarning tabiatni, borliqni oʻzlashtirish va oʻzgartirish jarayonida yaratgan moddiy va maʼnaviy boyliklari hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yoʻllari va usullari majmui” ekanligini eʼtirof etamiz. Chunki bu taʼrif, klassik maʼnoda, kompleks-sistemaliligi bilan ahamiyatiga ega.

Jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniyat fenomeni paradigmalari va funksional maqomi oʻzgarishlarini, yangi xususiyatlari, sifatleri namoyon boʻlishini eʼtiborga olib, uning taʼriflarini “tahrir qilishni” taqozo etmoqda. Xususan, hozirgi kunda global muammolar keskinlashuvi bilan, uning taʼrifida insonning borliqni oʻzgartirishi emas, balki uni qayta tiklash, barqarorligini muhofaza qilishdan iborat texnologiya madaniyati texnogen sivilizatsiyaning hozirgi rivojlanish bosqichi xususiyatini aniqlash mezonlari tizimida ustuvorlashib borishi tasodifiy emas. Demak, texnologik madaniyatning funksional ahamiyati shu metodologik tamoyil asosida baholanishi lozim.

Bizning fikrimizcha, texnogen sivilizatsiya – muayyan millat, davlat va jahon madaniyatining hozirgi va kelajak avlodlar iqtisodiy hayoti uchun zarur shart-sharoit yaratishga yoʻnaltirilgan oqilona texnologik usullardan, vositalardan foydalanib, potensial imkoniyatlarini reallashtirishdan iborat rivojlanish bosqichidir. Umuman texnogen sivilizatsiyani taʼriflashda: texnologik madaniyatning inson va jamiyat munosabatlarini uygʻunlashtirish faoliyati bilan bogʻlab, uning mazmun-mohiyatidan, funksional ahamiyatlaridan, transformatsiyasi usul-vositalaridan kelib chiqish kerak. Lekin har qanday sohada texnogen sivilizatsiyaning namoyon boʻlishi nisbatan mustaqil, oʻziga xos boʻlsa ham, umuman jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlaridan ajralmagan holatda shakllanadi va rivojlanadi.

Jamiyat intellektuallashuvining texnogen sivilizatsiyaga taʼsiri — bu jamiyatning ilm-fan, texnologiya va ishlab chiqarish jarayonlarining taraqqiyotining aniq koʻrinishlarini tashkil qiladi. Insonning texnologiyalar orqali tabiat va ijtimoiy muhitga taʼsiriga aloqador boʻlgan bu jarayonlar, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalarini shakllantirishda katta rol oʻynaydi.

Texnogen sivilizatsiyaning asosiy xosiyati — bu texnologiyalarning tezkor rivojlanishi va inson aqliga taʼsiri. Innovatsiyalar, yaʼni yangi texnologiyalarning yaratilishi, koʻpincha intellektuallashuvning yangi bosqichlariga olib keladi. Masalan: Avtomatizatsiya va raqamlashtirish: Yangicha robototexnika, sunʼiy intellekt, avtomatik tizimlar va yuqori tezlikdagi hisoblash imkoniyatlari inson ishini yaxshilash bilan birga, yangi bilimlarni va yangi tahlil qobiliyatlarini talab qiladi. Bular esa jamiyatdagi intellektual bosqichning oʻsishini taʼminlaydi.

Yillar davomida katta hajmdagi maʼlumotlarni saqlash, ularni tahlil qilish va foydalanish orqali yangi ilmiy va amaliyot sohaları yaratiladi. Ushbu jarayon intellektual salohiyatni oshirishda asosiy omilga aylanadi.

Texnologiyalar jamiyatdagi ishlash va oʻqish tarzini oʻzgartiradi. Masalan, internetning keng tarqalishi va raqamli platformalarning taraqqiyoti insonlarga taʼlim va kasbiy

rivojlanishni samarali tashkil qilish imkonini beradi. Odamlar o'rtasidagi aloqalar ham kengaygan va yangilangan, hamda aqliy faoliyatga nisbatan yangi talablar shakllandi.

Masofaviy ta'lim, onlayn kurslar va anonim platformalar insonlarning intellektual salohiyatini osonlik bilan oshirishga yordam beradi. 3D printerlar, robotlar, avtomatlashtirilgan tizimlar va boshqa yangiliklar ishlab chiqarish jarayonlarini juda samarali va aniq qilib boshqarish imkonini beradi.

Texnogen sivilizatsiya jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi texnologik dasturlar va innovatsiyalar iqtisodiyotdagi turli sohalarga kirib boradi, masalan, ishlab chiqarish, xizmatlar, transport, aloqa va moliya.

Ish o'rinlarining transformatsiyasi: Yangilangan texnologiyalar ko'pchilik ishni avtomatlashtiradi, ya'ni ular inson mehnatini talab qilmaydi. Bu holda ishlash va ta'limga bo'lgan munosabatlar o'zgaradi. Insonlarning intellektual salohiyati va ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirish talab qilinadi.

Ijtimoiy tenglik va imkoniyatlar: Texnologiyalar haqiqatan ham ijtimoiy va iqtisodiy tenglikni ta'minlashi mumkin, ammo ularning taraqqiyoti turli mintaqalar va jamiyatlar orasida o'zaro aniq ko'rinishdagi to'siqlar ham yuzaga kelishi mumkin.

Texnogen sivilizatsiya jamiyatning tabiatga ta'sirini ham ko'rsatadi. Insonlar texnologiyalar orqali tabiat resurslarini iste'mol qiladi va buning natijasida ekologik muammolar, masalan, iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kelib chiqadi.

Yangilangan texnologiyalar energiya va resurslardan samarali foydalanish imkonini berishi kerak, ammo ayrim holatlarda, texnologiyalar tabiatga haddan tashqari ta'sir ko'rsatadi va inson intellektual salohiyatini ham o'zgarishlarga yo'naltiradi. "Bugungi kunda jamiyat, tabiat, madaniyat, va biosfera texnosfera ta'sirida kuchayib bormoqda" [4, 90].

Bundan shuni xulosa qilish mumkin jamiyatning intellektuallashuvi va texnogen sivilizatsiya o'rtasidagi aloqa juda murakkab va o'zaro bog'liq. Texnologiyalar jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga yordam beradi, lekin ularning ekologik va ijtimoiy oqibatlarini ham muhim. Insonlar yangi zamoni va o'zgarishlarni qabul qilish orqali, har bir yangi texnologik taraqqiyotdan foydalanish bilan birga, jamiyatning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sirlarni kamaytirishga harakat qilishlari kerak.

Antropogen sivilizatsiyani tahlil qilamiz: Inson o'zining faol ijtimoiy va ma'naviy mavjudligi bilan tabiiy muhitda mutlaqo yangi jarayon – antropogen sivilizatsiyani yuzaga keltirdi. Bu atama insonning tabiatga ta'siri bilan birga, uning ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va ma'naviy tizimlarni shakllantiruvchi kreativ kuch ekanligini bildiradi. XXI asr global muammolarining aksariyati aynan antropogen omillar bilan bog'liq bo'lib, antropogen sivilizatsiyani falsafiy va ilmiy jihatdan chuqur o'rganishni taqozo etmoqda.

Bizning fikrimizcha, antropogen sivilizatsiya – bu inson ongi, irodasi va mehnati ta'sirida shakllangan, tabiiy jarayonlardan ko'ra inson faolligi ustuvor bo'lgan sivilizatsiya turidir. Uning falsafiy asoslari kuyidagi omillarga bog'liq: 1) Inson tabiatning bir qismi ekanligini anglagan holda, o'zi bilan birga yangi "ikkinchi tabiat"ni – inson tomonidan yaratilgan madaniy-texnik muhitni hosil qildi. 2) Texnika insonning tabiatga ta'sir kuchini tezlashtirdi, unga yangicha iste'mol madaniyatini in'om etdi, lekin tabiiy tizimlarning izdan chiqishi xavfini ham oshirdi. Bu — antropogen sivilizatsiyaning ikki tomonlama xarakteridan dalolat. 3) Antropogen sivilizatsiya inson erkinligi, ijodkorligi va ma'rifatining o'sishiga xizmat qilgan bo'lsada, uning

qiymat mezonlarini yanada murakkablashtirar ekan, falsafa oldiga axloqiy, ekologik va ma'naviy masalalarni qo'ydi.

Antropogen tahdidlar — insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri va xo'jalik faoliyati natijasida tabiiy ekotizimlardagi muvozanatning buzilishi ortidan yuzaga keladigan real va potensial ekologik xavf-xatarlardir. Insonning tartibsiz yoki me'yordan ortiq xo'jalik faoliyati tabiiy resurslar degradatsiyasiga, biosferaning asosiy tarkibiy qismlarida o'zgarishlar ro'y berishiga va ekologik barqarorlikning izdan chiqishiga olib keladi.

Antropogen omillar ta'sirida yuzaga keluvchi asosiy ekologik tahdidlar quyidagilardan iborat: Yer resurslarining degradatsiyasi: yer eroziyasi, ekin maydonlarining sho'rlanishi, tuproq unumdorligining pasayishi, deflyatsiya jarayonlarining kuchayishi.

Atrof-muhitning ifloslanishi: suv, havo va tuproqning sanoat, maishiy va qishloq xo'jaligi chiqindilari bilan ifloslanishi; radioaktiv moddalarning ko'payishi; qazilma boyliklardan foydalanish jarayonida zaharli birikmalarning sizot suvlariga aralashishi.

Gidrologik tizimlardagi o'zgarishlar: sun'iy suv inshootlari (GES dambalari)ning o'pirilishi yoki shikastlanishi; sizot suvlarining tabiiy rejimi buzilishi (qochib ketishi yoki yuzaga chiqqan holga kelishi); chuchuk suv zaxiralarining kamayishi va ifloslanishi.

Atmosfera jarayonlarining o'zgarishi: kislotali yomg'irlar; turli xil smoglar (changli, muzli, namli – "londoncha", fotoximik – "Los-Anjelescha"); ozon qatlamidagi tuynuklar; global isish, muzliklarning erishi.

Texnogen avariya: atom elektr stansiyalarida avariya, sanoat obyektlaridagi texnogen portlashlar, kimyoviy moddalar tarqalishi.

Biologik tahdidlar: yuqumli kasalliklarning keng tarqalishi, epidemiya va pandemiyalar, yangi viruslar mutatsiyasi va paydo bo'lishi, bioqarshilikning pasayishi va genofondning buzilishi.

Antropogen qurg'oqchilik va iqlim o'zgarishi: noto'g'ri suv resurslarini boshqarish, o'rmonlarning kesilishi, atmosferaga parnik gazlarining ko'p miqdorda chiqarilishi ortidan iqlim zonalarining o'zgarishi va qurg'oqchilik jarayonlarining kuchayishi.

Keng ko'lamlilik ekologik ofatlar: inson faoliyatining tartibsizligi va ekologik me'yorlarga amal qilmaslik oqibatida yuzaga keluvchi lokal, mintaqaviy va global ekologik krizislar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Hozirgi vaqtda bizning mintaqamiz mamlakatlari global isish, ekologik muvozanat buzilishining anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg'oqchilik va chang bo'ronlari, yerlarning shiddat bilan degradatsiyaga uchrashi va cho'llanishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi ko'rinishida namoyon bo'layotgan jiddiy tahdidlarini o'zida to'liq his etmoqda"[5]. Buning natijasida yurtimizda ham ayniqsa, Toshkent shahrida havoning ifloslanish darajasi oshishiga ta'sir qilmoqda. Xususan, 2025-yil 29-sentyabr kechki vaqtda Toshkent shahrida RM2,5-mayda dispersli zarrachalar kontsentratsiyasi 166 mkg/m³ ni tashkil etib, xalqaro IQAir ma'lumotlar bazasida dunyoda eng ifloslangan shaharlari reytingida 2-o'rinda belgilandi[6]. Bundan tashqari, shaharlardagi atmosfera qatlamlarining past shamollatilishi, shahar transportining ko'pligi, yo'llarning tirbandligi, keng ko'lamlilik qurilishlar, yashil hududlarning kamligi — bularning barchasi meteorologik sharoitlar va antropogen yuklama atmosfera havosining yuqori ifloslanishiga olib kelmoqda.

Antropogen tahdidlarni kamaytirish uchun tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik monitoring va boshqaruv tizimlarini rivojlantirish, ekologik xavfsizlikka oid

qonunchilikni kuchaytirish hamda aholida ekologik madaniyatni oshirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: Antropogen sivilizatsiya insonning tarixiy taraqqiyotidagi eng ta'sirchan va biroq eng mas'uliyatli bosqichdir. U inson faolligining beqiyos imkoniyatlarini namoyon etar ekan, shu bilan birga global ekologik, ijtimoiy va ma'naviy muammolarni keltirib chiqardi. Bugungi kun vazifasi antropogen sivilizatsiyani yangi falsafiy tamoyillar – barqarorlik, mas'uliyat va insonparvarlik – asosida qayta yo'naltirishdan iborat.

Xulosa va takliflar. Kosmogen, texnogen va antropogen sivilizatsiyalarning ontologik tahlili insoniyat rivojlanishining turli yo'nalishlarini ochib beradi. Kosmogen yondashuv olam va tabiat bilan uyg'unlikka asoslansa, texnogen yondashuv innovatsiya va texnikaga tayanadi, antropogen yondashuv esa insonning ma'naviy va ijtimoiy salohiyatini markazga qo'yadi. Bu yo'nalishlar birgalikda zamonaviy sivilizatsiyani chuqurroq anglash va uning istiqbollarini baholash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy sivilizatsiyani ontologik tahlil qilishda uning rivojlanish yo'nalishlarini teranlik bilan o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahlil uchta asosiy yondashuv — kosmogen, texnogen va antropogen modellari — orqali amalga oshirilishi mumkin. Kosmogen yondashuv, asosan, insonning tabiat va olam bilan uyg'unligiga e'tibor qaratadi. Bu modelda sivilizatsiya tabiatning universal qoidalari, biosfera va ekosistemalari bilan muvofiqlikda rivojlanishi lozim deb hisoblanadi. Kosmogen yondashuvda inson tabiatning faqat ijtimoiy va madaniy ishtirokchisi emas, balki uning integral qismi sifatida qaraladi, shu bois ekologik barqarorlik va ma'naviy hamohanglik tamoyillari markaziy ahamiyatga ega bo'ladi.

Texnogen yondashuv esa sivilizatsiyaning ilmiy va texnik salohiyatini markazga oladi. Ushbu modelda insonning innovatsion qobiliyati va texnik bilimlari sivilizatsiyaning rivojlanishi uchun asosiy vosita sifatida qaraladi. Texnogen yondashuv avtomatizatsiya, sun'iy intellekt, robototexnika va raqamli texnologiyalar orqali hayot sifatini yaxshilashni nazarda tutadi. Biroq, bunday rivojlanish etik, ijtimoiy va ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligi sababli, texnogen yondashuvda insonparvarlik va barqarorlikni ta'minlaydigan mexanizmlarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Antropogen yondashuv esa insonning ma'naviy, ijtimoiy va madaniy salohiyatini markazga qo'yadi. Bu model inson huquqlari, ijtimoiy adolat va madaniy merosni saqlash orqali sivilizatsiyaning insonparvar jihatlarini ustuvor qiladi. Antropogen yondashuvda insonning individual va kollektiv potentsiali sivilizatsiyaning asosiy resursi sifatida qaraladi va uning ma'naviy rivojlanishi ijtimoiy hamohanglikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Shu tariqa, kosmogen, texnogen va antropogen modellar o'zaro bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar sifatida qaralishi mumkin. Ularning integratsiyasi zamonaviy sivilizatsiyani chuqurroq tushunish, uning istiqbollarini baholash va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Globallashuv, ekologik tahdidlar va texnologik transformatsiyalar zamonaviy sivilizatsiyani kompleks qarashni talab qiladi. Shu bois, turli yondashuvlarning sintezi inson, tabiat va texnologiya o'rtasida barqaror uyg'unlikni ta'minlaydi hamda falsafiy va ilmiy nazariyalarning yangi konseptual modellarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. https://novini247.com/novini/nikolay-kardashev-klasifitsiral-tsvilizatsiite-na-badeshteto-po-sledniya-nachin-tsvilizatsii_6128588.html

2. “Inson, tafakkur, sotsium va koinot: taraqqiyoti, muammolari va istiqboli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” – T.: “Voris nashr” nashriyoti, 2025. 1450 b.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf «Olam va odam, din va ilm» «Hilol-Nashr», 2021. – 440 b.
4. “Inson, uning e’tiqodi, jamiyat, Koinot: taraqqiyoti, muammolari va hozirgi zamon” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.– T.: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2022. 450 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Bir makon, bir yo‘l” uchinchi xalqaro forumidagi nutqi <https://president.uz/uz/lists/view/6777>
6. <https://uza.uz/uz/posts/havoning-chang-bilan-ifloslanishi-tabiiy-va-antropogen-omillar-bilan-bogliq-641364>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).